SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

MUSTANOVA SHAXNOZA RUSTAMOVNA

INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA SINXRON TARJIMANING LINGVISTIK MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 81’25:81’253

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Mustanova Shaxnoza Rustamovna
Ingliz tilidan o‘zbek tiliga sinxron tarjimaning lingvistik muammolari va ularni bartaraf etish strategiyalari 3

Мустанова Шахноза Рустамовна
Лингвистические проблемы синхронного перевода с английского на узбекский язык и стратегии их преодоления 25

Mustanova Shakhnoza Rustamovna
Linguistic problems of simultaneous interpretation from English into Uzbek and strategies to overcome them 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 55

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

MUSTANOVA SHAXNOZA RUSTAMOVNA

INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA SINXRON TARJIMANING LINGVISTIK MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.4.PhD/Fil5332 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (samdchti.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tuxtasinov Ilhomjon Madaminovich** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Sulaymanova Nilufar Jabbarovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Djumabayeva Jamila Sharipovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertasiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "28" noyabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140117, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43- uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: info @samdchti.ru).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (66759 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43- uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "6" noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil "6" noyabr dagi 68 raqamli reyestr bayonnomasi).

B.A. Xolikov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O‘.O‘. Qo‘ldoshov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarjimashunosligi va tilshunoslik sohasida sinxron tarjima strategiyalarini o‘rganish, uning kognitiv va pragmatik jihatlarini aniqlash hozirgi davrning dolzarb ilmiy masalalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda xalqaro tarjima amaliyotida sinxron tarjimon duch keladigan murakkab vaziyatlarda tarjima strategiyalarini tanlash va qo‘llashga doir yangi yondashuvlar va metodlar ishlab chiqilmoqda. Bu jarayon so‘nggi yillarda global tarjimashunoslik maydonida yuzaga kelgan o‘zgarishlar, xalqaro muloqotning kengayishi va turli tillar o‘rtasidagi uyg‘unlashuv bilan bevosita bog‘liq. Xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va boshqa rasmiy tadbirlarda bir vaqtning o‘zida bir necha tildan foydalanish ehtiyoji, sinxron tarjimonni sintaktik, leksik, semantik va kognitiv strategiyalarni operativ tanlashga majbur qilmoqda. Shu munosabat bilan, sinxron tarjima strategiyalari nafaqat lingvistik ekvivalentlikni ta’minlash, balki nutqning muloqot maqsadini, uslubiy registrini va tinglovchiga yetkaziladigan emotsional va informatsion ta’sirini barqaror saqlashga xizmat qiladi. Bu esa sohada keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va sinxron tarjimaning samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dunyoning ilmiy markazlarida tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida olib boriladigan tadqiqotlar miqyosida sinxron tarjima jarayoni lingvistik, semantik va stilistik tafovutlarni hisobga olgan holda o‘rganilmoqda. Ayniqsa, ingliz tilidagi nutqni o‘zbek tiliga sinxron tarjima qilishda qo‘llaniladigan tarjima strategiyalari, ularning milliy-madaniy va pragmatik kontekstdagi vazifasi alohida ahamiyat kasb etadi. Sinxron tarjima strategiyalari nafaqat lingvistik ekvivalentlikni ta’minlash, balki nutqning muloqot maqsadini, uslubiy jihatlarini va tinglovchiga yetkaziladigan emotsional hamda uzatiladigan axborot nuqtai nazaridan ta’sirini barqaror saqlashga xizmat qiladi. Bu esa sinxron tarjimaning samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirib, sohada keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun zamin yaratmoqda.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitish va tarjimonlik faoliyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-sonli Farmoni ining 3-bandida ilmiy, badiiy va boshqa sohalardagi adabiyotlarni o‘zbek tilidan ingliz va boshqa xorijiy tillarga, shuningdek, jahon tillaridan o‘zbek tiliga yuksak sifat va mahorat bilan tarjima qila oladigan malakali tarjimonlarni tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-fevraldagi 140-son “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Tarjimonlar byurosi

faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, sinxron tarjima jarayonida yuzaga keladigan grammatik, semantik va pragmatik o‘zgarishlarni tahlil qilish, shuningdek, ularning lingvistik xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganish tarjima jarayonining samarali va aniq amalga oshirilishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va uning ilmiy-amaliy qiymatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar nafaqat milliy, balki xalqaro ilmiy maydonda ham yangi bilimlar va amaliy tavsiyalarni shakllantirishga asos bo‘lmoqda.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sinxron tarjima jarayonida qo‘llaniladigan strategiyalarning qiyosiy tahlili yuzasidan olimlar tomonidan samarali ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, V.N. Komissarov, Y.I.Retsker, I. Gambier, D. Jil, K. Teylor, G.V.Ossovskaya, A.V. Fyodorov va L.S.Barxudarov[1] o‘z tadqiqotlarida sinxron tarjimada yuzaga keladigan leksik-semantik, grammatik va pragmatik strategiyalarning asosiy turlarini, ularning asl matn mazmunini saqlashdagi ahamiyatini, shuningdek, milliy-madaniy va stilistik xususiyatlarni yetkazishdagi rolini batafsil yoritganlar.

Bundan tashqari, mamlakatimizda tarjimashunoslik va tilshunoslik sohalarida og‘zaki tarjima jarayonida qo‘llaniladigan grammatik, leksik-semantik va pragmatik o‘zgarishlarni tadqiq qilishga bag‘ishlangan muhim ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. O‘zbek tarjimashunosligida G‘.Salomov, I.G‘afurov, N.Komilov, M.Xolbekov, Sh.Sirojiddinov, G.G‘afurova, K.Jo‘rayev, Q.Musayev, M.Baqoyeva, N.Qambarov, E.Ochilov, G.Odilova, I.Mirzayev, O.Mo‘minov, G‘.Hoshimov, G‘.Rahimov, D.Jumanova, R.Shirinova, M.Javbo‘riyev, Sh.Isakova, N.Panjiyeva, N.O‘rmonova, A.Ko‘chiboyev, N.Daminov, M.Raufov[2] va hokazolar

[1] Комиссаров В.Н. Теория перевода. – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.; Рецкер Я.И. Теория перевода и интерпретация. – М.: Наука, 1974. – 213 с.; Gambier Y., Gile D., & Taylor C. (edit.). Conference interpreting: Current trends in research: Proceedings of the International Conference on Interpreting: What do we know and how? Turku, 25-27 August 1994 //International Journal of Translation Studies 12/1.1997. – P.166-168; Gile D. Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training. – Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2011. – 270 p.; Оссовская Г.В. Переводческая деятельность. – М.: Высшая школа, 1985. – 158. с.; Федоров А.В. Введение в теорию перевода. – М.: ЛГУ, 1983. – 337 с.; Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975. – 240 с.

[2] Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1982. – 382 b.; Salomov G‘. Tarjima tashvishlari. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1983. – 189 b.; Salomov G‘., Komilov N. Do‘stlik ko‘priklari: Poeziya va tarjima. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1979. – 222 b.; G‘afurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. – Toshkent, 2008. – 211 b.; Xolbekov M. Tarjimashunoslik va tarjima tanqidi. – Toshkent: Navro‘z, 2015. – 112 b.; Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011. – 166 b.; Гафурова Г. Развитие перевода в Узбекистане. – Tashkent: Фан, 1973. – 159 с.; Jo‘rayev K., Jo‘rayev E. va b. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Andijon, 2008. – 224 b.; Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005.

tomonidan tarjima nazariyasi va amaliyoti, tarjimada ekvivalentlikni ta'minlashning nazariy asoslari hamda muammolari yechimi, milliy-madaniy elementlarni qayta yaratish va o'zbek tiliga tarjima qilishda paydo bo'ladigan semantik hamda leksik qiyinchiliklar, ularni bartaraf etish masalalari atroflicha o'rganilgan. Biroq, sinxron tarjima strategiyalarining ingliz va o'zbek tillari qiyosiy tahlili doirasidagi xususiyatlari yaxlit monografik planda o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari" mavzusidagi "Doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar va ilmiy tadqiqotchilar o'rtasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillararo amalga oshirilgan sinxron tarjimalarda qo'llangan tarjima strategiyalarining lingvistik (leksik va grammatik) hamda kognitiv-pragmatik xususiyatlarini aniqlash va ularning tarjimaning adekvatligi, barqarorligi hamda muloqot samaradorligiga ta'sirini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz-o'zbek tillararo sinxron tarjimada ekvivalenti mavjud bo'lmagan milliy-madaniy birliklar, institutsional nomlar, metaforik va idiomatik birliklarning adekvat tarjimaga erishishda qo'llaniladigan tarjima strategiyalarining lingvistik va madaniy-muloqot ahamiyatini aniqlash hamda ularning samaradorligini baholash;

rasmiy-siyosiy nutqlar materialida ingliz-o'zbek tillararo sinxron tarjimada qo'llaniladigan tarjima strategiyalarining ekvivalentlikni va siyosiy-diplomatik diskursning pragmatik yo'nalishini saqlashdagi samaradorligini amaliy tahlillar asosida tadqiq qilish.

– 352 b.; Baqoyeva M. Ingliz va Amerika adabiyotidan o'zbek tiliga she'riy tarjima va qiyosiy she'rshunoslik muammolari. – Toshkent: Fan, 2015. – 288 b.; G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012. – 216 b.; Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2012. – 124 b.; Odilova G. Ingliz va o'zbek mumtoz she'riyati tarjimalarida adekvatlik muammolari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2011. – 72 b.; Мирзаев И.К. Проблемы передачи слов, обозначающих реалии французской жизни на узбекский язык: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1975. – 88 с.; Mo'minov O. A guide to consecutive translation. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2013. – 320 b.; Mo'minov O. A guide to simultaneous translation. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2005. – 67 b.; Xoshimov G'. К теории метаязыка транслятология // Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2015. – 160 b.; Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: Darslik-majmua. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.; Jumanova D. So'zning til aloqa jarayonidagi fonologik modeli: Filol. fan. dokt. … diss. avtoref. – Toshkent, 2016. – 84 b.; Shirinova R. Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi: Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 86 b.; Javbo'riyev M. Badiiy tarjimada milliy xarakter va tarixiy davr koloritini qayta yaratish (O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" tarixiy romanining nemischa tarjimasi misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1991. – 82 b.; Isaqova Sh. Badiiy tarjimada milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi (Oybekning "Navoiy" romanining fransuzcha tarjimasi misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2004. – 86 b.; Panjiyeva N.N. Когнитивный аспект оценочных номинаций лица в английском и узбекском языках: Дисс. … док. филол. наук. – Ташкент, 2004. – 78 с.; O'rmonova N. Tarjimada tarixiy-arxaik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi (o'zbek adabiyotidan fransuz tiliga qilingan tarjimalar tahlili asosida): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 82 b.; Ko'chiboyev A. Badiiy matn tarjimasining pragmatik aspektlari: Matn pragmatikasi: O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2015. – 123 b.; Daminov N.Q. Sinxron tarjima jarayonida kompressiya va dekompressiya usulidan foydalanish (rasmiy nutqlar misolida): Filol. fan. fals. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 62 b.; Raufov M.M. Sinxron tarjimada transformatsiyalarning qiyosiy-chog'ishtirma tahlili (ingliz, fransuz, o'zbek tillari rasmiy diskursi misolida): Filol. fan. falsafa. dokt.(PhD)…disser. Avtoref. – Toshkent, 2025. – 68 b.

ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjima jarayonida qo‘llaniladigan asosiy tarjima strategiyalarini aniqlash hamda ularning real vaqt rejimida tarjima jarayonidagi funksional ahamiyati va o‘rnini belgilash;

ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimada qo‘llaniladigan grammatik va leksik-semantik tarjima strategiyalarini tizimli tasniflash, ularning qo‘llanish chastotasi va mazmunni saqlash hamda ifodani tarjima tiliga moslashtirishdagi rolini tahlil qilish;

ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimada ekvivalenti mavjud bo‘lmagan milliy-madaniy birliklar, institutsional nomlar, metaforik va idiomatik birliklarning adekvat tarjimaga erishishda qo‘llaniladigan tarjima strategiyalarining lingvistik va madaniy-muloqot ahamiyatini aniqlash hamda ularning samaradorligini baholash;

rasmiy-siyosiy nutqlar materialida ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimada qo‘llaniladigan tarjima strategiyalarining ekvivalentlikni va siyosiy-diplomatik diskursning pragmatik yo‘nalishini saqlashdagi samaradorligini amaliy tahlillar asosida tadqiq qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida so‘zlagan nutqlarining ingliz-o‘zbek tillaridagi sinxron tarjimasi jarayonidagi lingvistik muammolar va ularni bartaraf etish uchun qo‘llanilgan tarjima strategiyalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimada lingvistik muammolarning va tarjima strategiyalarining leksik, grammatik va semantik xususiyatlari, shuningdek, pragmatik va kognitiv asoslari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-chog‘ishtirma, qismlarga ajratib tahlil qilish, struktur-semantik va tasniflash, statistik metod, korpus tahlili, diskurs tahlili, pragmatik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimada qo‘llaniladigan asosiy tarjima strategiyalari aniqlanib, ularning real vaqt rejimida tarjima jarayonidagi funksional vazifalari – grammatik moslashtirish, semantik aniqlik, tarjimonning kognitiv yukini optimallashtirish – ilk bor ilmiy jihatdan asoslangan;

grammatik hamda leksik-semantik tarjima strategiyalari tizimli tasniflanib, ularning ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimada qo‘llanish chastotasi, semantik mazmunni saqlash hamda ifodani tarjima tiliga moslashtirishdagi o‘rni empirik materiallar asosida ilmiy jihatdan isbotlangan;

ekvivalenti mavjud bo‘lmagan milliy-madaniy birliklar, institutsional nomlar (muassasa va tashkilot nomlari), metaforik va idiomatik birliklarni ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimada qo‘llaniladigan strategiyalarining lingvistik va madaniy-kommunikativ ahamiyati aniqlandi hamda ularning miqdoriy samaradorligi amaliy tahlil orqali ilmiy jihatdan dalillangan;

rasmiy siyosiy nutqlar misolida ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimada qo‘llaniladigan strategiyalarining ekvivalentlikni saqlash hamda siyosiy-diplomatik diskursning pragmatik yo‘nalishini yetkazishdagi samaradorligiga oid qarashlar qiyosiy tahlillar asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimada qo‘llaniladigan leksik-semantik va grammatik strategiyalarni funksional tahlil qilish natijasida ushbu metodologiyani boshqa til juftliklarida ayniqsa, turli tizimli tillar o‘rtasidagi sinxron tarjima jarayonlarini tadqiq etishda qo‘llash mumkinligi isbotlangan;

ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimasi jarayonidagi lisoniy o‘xshashlik va tafovutlar hamda milliy-madaniy va institutsional birliklarni tarjima qilish xususiyatlarini tahlil qilish natijasida tarjima amaliyotida uchraydigan lingvistik qiyinchiliklarni oldindan aniqlash va ularni samarali bartaraf etish strategiyalari ro‘yxati ishlab chiqilgan;

ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimada qo‘llaniladigan strategiyalarning tarjima sifatiga ta’sirini tahlil qilish natijasida xalqaro konferensiyalar, diplomatik tadbirlarda sinxron tarjima sifatini yaxshilashga erishilgan;

olib borilgan ilmiy tadqiqot natijasida oliy ta’lim muassasalarida “Sinxron tarjima nazariyasi va amaliyoti” fanining mazmunini takomillashtirish, zamonaviy o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish, sinxron tarjimonlarni tayyorlash hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish kurslari samaradorligini oshirishda foydalanish mumkin bo‘lgan natijalar olingan .

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida chiqarilgan xulosalarning ilmiy yondashuvlari, metodologik usullar yordamida asoslanganligi, nazariy g‘oyalar va ma’lumotlarning ishonchli manbalardan olinganligi, ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalarning sinovdan o‘tkazilganligi hamda natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi: 1) ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimada qo‘llaniladigan tarjima strategiyalarning (sintaktik, leksik-semantik, kompressiya, dekompressiya, modulyatsiya va boshqa) funksional-lingvistik jihatlari yanada chuqurroq yoritilgan; 2) sinxron tarjima jarayoning psixolingvistik mexanizmlar (stressga moslashish, diqqatni taqsimlash, qisqa muddatli xotirani boshqarish va nutqni prognozlash, ya’ni oldindan bashorat qilish) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlangani; 3) ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimada tanlanadigan strategiyalar bu ikki turli lisoniy tizimlarga mansub tillar o‘rtasidagi tipologik tafovutlar bilan belgilanishi isbotlanib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sinxron tarjima amaliyotini takomillashtirish, xususan, rasmiy-siyosiy va diplomatik diskursda sifatli sinxron tarjimani amalga oshirish, oliy o‘quv yurtlarida tarjima nazariyasi va amaliyoti, filologiya, xorijiy tillar kabi yo‘nalishlar doirasida bakalavriat va magistratura bosqichlari uchun “Sinxron tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Og‘zaki tarjima”, “Tarjimashunoslik asoslari” fanlari bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar hamda maxsus kurslar uchun uslubiy tavsiyalar tayyorlashda asosiy manba sifatida qo‘llash imkonining mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga sinxron tarjimaning lingvistik muammolari va ularni bartaraf etish strategiyalari mavzusidagi tadqiqot yuzasidan chiqarilgan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek tillararo amalga oshirilgan sinxron tarjimalarda qo‘llangan tarjima strategiyalarining lingvistik (leksik va grammatik) hamda kognitiv-pragmatik xususiyatlari tahlili bo‘yicha chiqarilgan ilmiy xulosalardan Toshkent shahridagi Fransiya Alyansida olib borilgan sinxron tarjimalar hamda xalqaro konferensiyalarda foydalanilgan (Toshkent Fransuz Alyansining 2026-yil 1-apreldagi 15-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, sinxron tarjima jarayonida qo‘llanadigan strategiyalar sifati va samaradorligining oshishiga erishilgan;

sinxron tarjima jarayonida yuzaga keladigan tillararo o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga qaratilgan amaliy qoidalar ishlab chiqilganligi, natijada sinxron tarjimonlarda muammolarga darhol yechim topish ko‘nikmasini rivojlantirish bilan bog‘liq nazariy xulosalar Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasining professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘qitilayotgan “Amaliy sinxron tarjima” (magistratura mutaxassisligi talabalari uchun) fani o‘quv dasturini tuzish, jumladan, “Sinxron tarjimada strategiyalardan foydalanish”, “Sinxron tarjimada leksik muammolar” kabi mavzularning kiritilishiga asos bo‘lib xizmat qilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 17-yanvardagi 01/2-243-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tarjima nazariyasi va amaliyoti ta’lim yo‘nalishi talabalarining sinxron tarjimaga doir nazariy hamda amaliy bilimlarining kengayishiga erishilgan;

sinxron tarjimada strategiyalardan foydalanish, adekvat tarjimaga erishishda strategiyalar ahamiyati va sinxron tarjima jarayonida mavjud bo‘lmagan milliy-madaniy birliklarning berilishiga doir xulosa hamda tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrdagi 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80020GR0039-raqamli “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2026-yil 17-yanvardagi 229/02-sonli ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqot materiallari tarjimashunoslik, amaliy sinxron tarjima (magistratura mutaxassisligi talabalari uchun), sinxron tarjimada leksik muammolar kabi mavzularning kiritilishida muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

sinxron tarjima jarayonida qo‘llaniladigan strategiyalar grammatik, semantik va pragmatik xususiyatlari o‘rganilib, rasmiy-siyosiy nutqlar misolida ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimada qo‘llaniladigan strategiyalarining ekvivalentlikni saqlash hamda siyosiy-diplomatik diskursning pragmatik yo‘nalishini yetkazishdagi samaradorligiga oid qarashlar va tahlillardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida Ruminiyaning Alba Yuliya universteti bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan “ICM -2022-KA171-000077648” raqamli xalqaro loyiha doirasida keng foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillar universitetining 2026-yil 17-martdagi 11-25/136-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimada qo‘llaniladigan tarjima strategiyalarining lingvistik va madaniy-kommunikativ ahamiyati aniqlangan hamda ularning samaradorligi amaliy tahlillar orqali dalillangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish e’lon qilingan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 1 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 148 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati tavsiflangan, o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti ochib berilgan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangligi va amaliy natijalari izohlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati taqdim etilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo‘yicha batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sinxron tarjimaning konseptual asoslari va lingvistik muammolar tipologiyasi”** deb nomlanuvchi birinchi bobida sinxron tarjimaning nazariy-konseptual poydevori, uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ushbu jarayonda yuzaga keladigan lingvistik muammolarning tasnifi tahlil qilingan. Shuningdek, bobda sinxron tarjimaning shakllanish bosqichlari bilan bir qatorda, ingliz va o‘zbek tillari tizimidagi tafovutlar natijasida yuzaga keluvchi leksik, grammatik va sintaktik muammolar tipologiyasi hamda ularni bartaraf etishning ilmiy-nazariy asoslari yoritib berilgan.

Mazkur bobning *“Sinxron tarjima tushunchasining nazariy-lingvistik talqini va uning fundamental asoslari”* deb nomlangan birinchi faslida sinxron tarjima tushunchasi va uning o‘zgia xos xususiyatlari haqida jahon hamda o‘zbek tarjimashunos olimlarining fikrlari berilgan.

Sinxron tarjima – bu og‘zaki tarjima turlari orasida eng murakkabi bo‘lib, mazkur turdagi tarjimada maxsus jihozdan foydalanib, tarjima amalga oshiriladi. Bu notiq nutq so‘zlayotgan chog‘ida tarjimonning uni bo‘lmasdan, uzluksiz nutq mazmunini tinglovchilarga yetkazib berishning og‘zaki tarjima usulidir[3].

Sinxron tarjima, mohiyatan, bir-biri bilan uzviy bog‘langan kognitiv, lingvistik va texnik jarayonlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu faoliyatning ishlash mexanizmlarini shartli ravishda quyidagi tarkibiy unsurlar doirasida ko‘rib chiqish mumkin[4]:

[3] Kudratov A. Sinxron tarjimaning ishlash mexanizimi // Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences, 2(29), – B. 301-309.

[4] Вероятностное прогнозирование в деятельности человека / Под ред. И.М.Фейгенберга, Г.Е.Журавлева. – М.: Наука, 1977. – 391 с.

a) Qisqa muddatli (operativ) xotiraning roli;

b) Tinglash, idrok etish va nutq ishlab chiqarishning parallel tarzda kechishi;

c) Taxminiy bashorat (prognoz) qilish mexanizmi.

Tezkor tarjima faoliyati, odatda, stressli va dinamik muloqot vaziyatlarda amalga oshiriladi. Bu holat sinxron tarjimonga yuqori darajadagi:

a) kognitiv barqarorlik;
b) psixologik chidamlilik;
c) tezkor moslashuvchanlikni talab etadi[5].

Sinxron tarjimani boshqa tarjima turlaridan ajratib turadigan asosiy xususiyatlardan biri – uning vaqt imkoniyatlari jihatidan qat'iy cheklanganligidir. A.Shiryayev tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, sinxron tarjimon ishlashi uchun mavjud bo'lgan vaqt oralig'i bevosita muloqot ishtirokchilarining nutq tezligiga bog'liq holda o'zgarib turadi.

Mazkur bobning *"Sinxron tarjimaning shakllanish tarixi va taraqqiyoti"* deb nomlangan ikkinchi faslida sinxron tarjimaning uzoq o'tmishidan bugungacha rivojlanish taraqqiyoti haqida so'z yuritilgan.

Aksar ilmiy-adabiy manbalarda sinxron tarjimaning shakllanishi XX asr o'rtalarida Nyurnberg xalqaro harbiy tribunali jarayonlari bilan bog'liq holda talqin etiladi va XX asr ikkinchi yarmiga kelib jahon miqyosidagi xalqaro siyosiy va diplomatik aloqalar, ko'p tomonlama muzokaralar, xalqaro tashkilotlar faoliyatining jadallashuvi bilan chambarchas bog'liq holda jadal sur'atlarda rivojlana boshlaydi. Mazkur davrdan e'tiboran sinxron tarjima alohida kasbiy faoliyat turi sifatida shakllanib, "professional sinxron tarjima" tushunchasi ilmiy va amaliy muomalaga kirib keladi[6].

Biroq, ayrim rus tadqiqotchilarining ishlarida hamda ba'zi arxiv manbalarida sinxron tarjima unsurlari ushbu tarixiy voqealardan qariyb yigirma yil avval ham ma'lum muloqot vaziyatlarida sinov tariqasida qo'llanilganiga doir ma'lumotlar uchraydi.

Ba'zi ilmiy manbalarda sinxron tarjima tarixining rasmiy boshlanish nuqtasi sifatida 1919-yilda Parij shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya ham tilga olinadi[7].

Birinchi bobning so'nggi fasli *"Sinxron tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik muammolar"* deb nomlangan bo'lib, unda sinxron tarjimaning lingvistik muammolari tasniflangan. Ingliz tilidan o'zbek tiliga sinxron tarjima amaliyotida ingliz va o'zbek tillarining grammatik hamda sintaktik tuzilishini chuqur bilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ikki tilning tipologik jihatdan turlicha tizimga mansubligi tarjimonga real vaqt sharoitida ishlovchi mutaxassis uchun qo'shimcha lingvistik qiyinchilik tug'diradi.

---

[5] Beaugrande R. Consultations, conferences and proceedings: their role as discourse translation // Language, discourse and translation in the West and Middle East / Ed. by R. de Beaugrande, A. Shunnaq, M. H. Heliel. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1994. – P. 221-246.

[6] O'sha sahifa. – B. 36.

[7] Чернов Г.В. Теория и практика синхронного перевода. – Изд. 2-е. – М.: Изд-во ЛКИ, 2007. – 208 с.

Daniel Jil og‘zaki tarjima nazariyasiga lisoniy-psixologik yondashuvni olib kirgan olimlardan biri bo‘lib, u sinxron tarjima jarayonini tushuntirish uchun maxsus konsepsiyani taklif etadi[8]. Mazkur konsepsiyaga ko‘ra, tarjimon ongida sodir bo‘ladigan barcha amallar inson miyasining cheklangan imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq: diqqat, xotira va nutq faoliyatining sig‘imi ma’lum chegaradan oshmaydi. Shuning uchun sinxron tarjimada uchraydigan ko‘plab qiyinchiliklar til tizimining murakkabligi emas, balki vaqt tanqisligi sharoitida ana shu cheklangan imkoniyatlarni bir vaqtning o‘zida bir necha vazifa o‘rtasida taqsimlash zarurati bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning **“Sinxron tarjimada lingvistik muammolarning nazariy va amaliy asoslari”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida sinxron tarjimada strategiya tushunchasi, uning nazariy asoslari ko‘rib chiqiladi, shuningdek, tarjimashunoslik sohasidagi turli tadqiqotchilar tomonidan mazkur tushunchaga nisbatan taklif etilgan ta’riflar tahlil qilinadi.

Ta’kidlash joizki, zamonaviy tarjimashunoslikda “tarjima strategiyasi” tushunchasining yagona va umumqabul qilingan ta’rifi hanuzgacha mavjud emas. Bu holat muhim metodologik muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur kategoriya tarjima jarayonini tahlil qilish va tarjima sifatini baholashda asosiy tushunchalardan biri bo‘lishiga qaramay, ilmiy adabiyotlarda “tarjima strategiyasi”, “tarjima taktikasi”, “tarjimon strategiyasi” kabi atamalar parallel ravishda qo‘llaniladi. Bunday terminologik tarqoqlik tushunchalar o‘rtasidagi chegaralarning noaniqlashishiga hamda iyerarxik jihatdan farqlanishi lozim bo‘lgan strategiya va taktika kabi birliklarning asossiz ravishda bir-biriga yaqinlashtirilishiga olib keladi. Natijada bu holat tadqiqotchilar va ta’lim oluvchilar uchun qo‘shimcha qiyinchiliklarini yuzaga keltiradi. Boshqacha aytganda, strategiya alohida “mikrotexnik” qarorlar majmui sifatida emas, balki maqsad va vaziyatni hisobga olgan holda butun tarjima jarayonini muvofiqlashtiruvchi dasturiy yondashuv sifatida tushuniladi.

Dissertatsiyaning *“Sinxron tarjimada strategiya tushunchasi”* deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi faslida sinxron tarjima jarayonida qo‘llaniladigan strategiya tushunchasi, uning nazariy asoslari hamda tarjimashunos olimlar tomonidan ushbu tushunchaga berilgan ta’riflar tahlil qilingan.

Tadqiqotimiz davomida bir qator strategiyalar ko‘rib chiqildi. Masalan, kontekst yetishmovchiligi bilan bog‘liq bir mexanizm – **kutish** strategiyasidi. U odatda, gapning semantik yuki oxirida kelgan qismlarida jamlanadigan tillardan tarjima qilinayotganda (masalan, fe’l yoki gapning kesimi o‘zbektilidagi kabi kechikib keladigan tillardan sinxron ravishda tarjima qilishda) ko‘p qo‘llaniladi. Kutishning asosiy vazifasi tarjimonga qaror qabul qilish uchun yetarli axborot yig‘ilguncha “kechiktirilgan reaksiyani” saqlashdir. Tarjimon muhim bo‘lak (masalan, kesim, inkor, modal ma’no yoki sabab-oqibat bog‘lovchisi)

[8] Gile D. Predictable Sentence Endings in Japanese and Conference Interpretation // The Interpreter’s Newsletter, Special Issue 1, 1995. – P. 12-23.

kelmaguncha tarjimaning yakuniy matnini og‘zaki bayon etmaslikka harakat qiladi.

Stolling (vaqtdan yutish) strategiyasi kutishga yaqin bo‘lsa-da, uning texnologik modeli boshqacharoq, ya’ni bunda tarjimon pauza qilmaydi, aksincha, tarjima tilidagi nutq oqimini uzmasdan turib vaqtdan yutadi. Bu vaqtdan yutish nutq tezligini ongli ravishda biroz sekinlashtirish, oldindan berilgan tematik axborotni qisqa qayta bayon qilish, semantik jihatdan yangi bo‘lmagan (lekin muloqotni ushlab turuvchi) birliklardan foydalanish orqali erishiladi.

Sinxron tarjimada yuqori ekvivalentlikka erishishning yana bir yo‘liga misol **matn izchilligini saqlash** strategiyasidir. Bu yondashuvda tarjimon nutqi asliyat tilidagi nutqning boshlanishi bilan deyarli bir vaqtda boshlanadi va tarjimon o‘z nutq oqimini maksimal darajada notiq so‘zlari bilan parallel tarzda olib borishga intiladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli *“Transformatsiya strategiyasi sinxron tarjimaning tarkibiy-lingvistik usuli sifatida”* deb nomlangan bo‘lib, unda sinxron tarjima jarayonida transformatsiyalarning tarjima strategiyasi sifatida qo‘llanilish xususiyatlari yoritib berilgan.

“**Transformatsiya**” atamasi etimologik jihatdan lotincha *“transformatio”* negiziga borib taqaladi va umumiy ma’noda “shaklni o‘zgartirish”, “qayta hosil qilish” kabi mazmunni ifodalaydi[9]. Mazkur hodisaning nazariy asoslari bir qator yetakchi olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Xususan, Y.I.Retsker o‘zining tarjima nazariyasi va amaliyotiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida transformatsiyani manba til birligini maqsad tilda shaklan farqlanuvchi, ammo mazmunan adekvat bo‘lgan muqobil bilan almashtirish jarayoni sifatida tavsiflaydi[10]. V.N.Komissarov yondashuvida esa transformatsiya tushunchasi manba va maqsad tillari tizimlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishga qaratilgan “tizimli qayta qurishlar” sifatida talqin etiladi[11].

O‘zbek tarjimashunosligida ham mazkur masala N.Qambarov, O.Mo‘minov va Q.Musayev kabi olimlarning tadqiqotlarida keng tahlil qilingan. Mualliflar transformatsiyalarni, avvalo, asliyat matn mazmunini o‘zbek tilining me’yoriy qoliplariga muvofiqlashtirish zarurati bilan izohlaydilar[12]. Ularning talqiniga ko‘ra, transformatsion amallar asliyat semantikasini saqlagan holda, tarjima tilida tabiiy va mantiqiy izchil matn yaratishning asosiy shartidir.

Leksik transformatsiyalar til birliklarining ma’noviy tarkibini nutq vaziyatiga mos holda o‘zgartirish va tarjima jarayonida tarjima tilining me’yorlariga moslashtirishni ta’minlaydi. Mazkur faslda modulyatsiya, konkretlashtirish, umumlashtirish, kompressiya (ixshamlashtirish), dekompressiya (mazmunni kengaytirish), grammatik transformatsiya va boshqa strategiyalar tadqiq etildi

[9] O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T harfi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 635 b.
[10] Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: Международные отношения, 1974. – 216 с.
[11] Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М.: ЖЭТС, 1999. – 192 с.
[12] G‘ofurov I., Mo‘minov O., Kambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2012. – 106 b.

Ikkinchi bobning so‘nggi fasli *“Sinxron tarjimada strategiya tanlovining pragmatik asoslari va omillari”* deb nomlangan bo‘lib, unda sinxron tarjima jarayonida tarjimonning oldida turgan vazifalaridan biri – ekvivalentlikni ta’minlashda tarjimon strategiyalari haqida so‘z yuritilgan.

Mazkur tadqiqotda sinxron tarjimonlar yo‘l qo‘yadigan xatolarni maxsus tasniflash va ularning sabablarini izchil tahlil qilish alohida maqsad qilib qo‘yilmagan, chunki bu masala mustaqil va keng qamrovli tadqiqot doirasini talab etadi. Shunga qaramay, sinxron tarjima jarayonida muayyan strategiyani tanlash, bizningcha, bir vaqtning o‘zida lingvistik hamda ekstralingvistik omillar bilan izohlanadi va aynan shu xususiyatlar bir nechta strategiyalar majmuasining real vaqt sharoitida qanday mushtaraklikda ishlatilishini belgilaydi.

Rasmiy diplomatik nutqda shu uslubga xos qoliplar (minnatdorlik bildirish, e’tirof etish, murojaatning xushmuomalalik qoliplari) yuqori chastotali va me’yoriy birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday birliklar sinxron tarjimada vaqt tanqisligi sharoitida nafaqat “qulay” variant, balki, institutsional talabga mos standart yechim sifatida ishlaydi. Shuning uchun tarjimon strategiyasi ko‘pincha so‘zma-so‘z qurilmani qayta tiklash emas, balki tarjima tilida shu nutq aktiga mos qoliplashgan ekvivalentni tanlash orqali ro‘yobga chiqadi. Masalan,

“Fursatdan foydalanib, ... chuqur minnatdorlik izhor etaman.”[13] *(asliyat tilida). “I would like to take this opportunity to express my deep gratitude ...” (tarjima tilida).* Bu yerda *“Fursatdan foydalanib…”* va *“I would like to take this opportunity…”* bir-biriga oddiy tarjima ekvivalenti bo‘lishdan ko‘ra, rasmiy nutqda yuqori chastotali, qoliplashgan kirish so‘zlar sifatida mos keladi. Ularning diskursdagi vazifasi esa minnatdorlikni odob bilan boshlashga xizmat qilgan.

Tadqiqotning **“Sinxron tarjimada lingvistik strategiyalarning tadqiqi va tahlili”** nomli uchinchi bobi bevosita amaliy tahlillarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ingliz va o‘zbek tillari misolida sinxron tarjima jarayonida qo‘llaniladigan asosiy lisoniy usullar tadqiq etiladi.

Mazkur bobning birinchi fasli *“Ingliz-o‘zbek tillararo sinxron tarjimada qo‘llanilgan strategiyalarning chog‘ishtirma tahlili”* deb nomlangan bo‘lib, ushbu tillararo amalga oshirilgan sinxron tarjimalarda tarjima strategiyalarining qo‘llanilish masalalari misollar yordamida tahlil qilingan.

Tadqiqotda alohida e’tibor berilgan strategiyalardan biri **segmentatsiya**, ya’ni asliyat tilidagi murakkab sintaktik qurilmani tarjimada ikki yoki undan ortiq sodda gaplarga ajratish orqali ifoda etish strategiyasidir. Bu usul sinxron tarjimada, odatda, tinglash va mazmunni yo‘qotmasdan tarjima qilish kabi ikki kognitiv jarayon o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydi[14]. Masalan, “*Global xavfsizlik institutlari faoliyatidagi muammolar va xalqaro huquq me’yorlaridan chekinish kuchaymoqda va bularning barchasi keng ko‘lamdagi keskinlik ortishiga sabab bo‘lmoqda.”*[15].

[13] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMTning 2023-yil 20-sentabrdagi 78-sessiyasidagi nutqi // https://www.youtube.com/watch?v=twiqHyUmjio

[14] Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода. – М.: Международные отношения, 1980. – 75 с.

[15] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2025-yil 23-sentabrdagi 80-sessiyasidagi nutqi //https://www.youtube.com/watch?v=cwJKMPmzW4o

(asliyat tilida). "Problems in functioning global security institutions and deviation from international law are increasing. All this is causing a huge increase in tension." (tarjima tilida)

Asliyat tilidagi bitta murakkab gap tarjima tilida ikkita mustaqil gap(alohida segment)ga ajratilib, sinxron tarjimada adekvatlikka ijobiy ta'sir ko'rsatilgan hamda tarjima matnining idrok etilishi yengillashtirilgan.

Integratsiya (uyg'unlashtirish) – asliyat tilidagi alohida-alohida segmentlar (ro'yxat bandlari, qisqa sintaktik bo'laklar, parallel konstruktsiyalar)ni tarjimada yagona sintaktik qolip ichida jamlash orqali berish usulidir. Bu, bir tomondan, o'zbek rasmiy-uslubiy diskursida uchraydigan bir qator uyushiq bo'lakli gaplarning tabiiy modeliga mos keladi; ikkinchi tomondan esa sinxron tarjimada nutq oqimini ixchamlashtirish va tematik yaxlitlikni saqlash imkonini oshiradi[16].Masalan, *"Jumladan, EKOSOS va YUNKTAD shafeligida Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy taraqqiyoti masalalariga bag'ishlangan xalqaro forum o'tkazish, YUNIDO bilan sanoatda "yashil" texnologiyalar mintaqaviy xabini tashkil etish, mintaqamizda suv resurslaridan oqilona foydalanish, "yashil" makon barpo etish hamda demografik barqarorlikka erishish bo'yicha dasturlarni qabul qilish tashabbuslari bilan chiqamiz."*[17] *(asliyat tilida)*

"In particular, we propose: holding an international forum under the auspices of ECOSOC and UNCTAD dedicated to the economic development of the Central Asian states; establishing a regional hub for green technologies in industry jointly with UNIDO; adopting programs on the rational use of water resources, the creation of "green" spaces, and the achievement of demographic resilience in our region;" (tarjima tilida)

Ingliz tilidagi sinxron tarjimada o'zbekcha nutqdagi takliflar ro'yxat ko'rinishida segmentlangan (har bir band alohida pauza bilan ajratilgan). O'zbek tilida ushbu bandlar "jumladan … forum o'tkazish, … xabni tashkil etish, … dasturlarni qabul qilish" tarzida bir sanash mazmunidagi gap doirasida uyg'unlashtirilgan.

Leksik-semantik modulyatsiya – tarjimada mazmun saqlangan holda, uning boshqa semantik rakursda (boshqa "nuqtai nazar", boshqacha tasavvur qilish orqali) ifodalanishidir. Sinxron tarjimada modulyatsiya strategiyasini qo'llash sabablarini quyidagicha tasniflash mumkin: manba tildagi idiomatik birliklar va obrazlilik borligi sabab; diplomatik registr talabi (keskinlikni yumshatish, neytrallash) sabab; tezkorlik: qisqa, standart, "tayyor" formulalar orqali mazmunni barqaror uzatish kerakligi sabab.

Masalan, *"G'azo sektoridagi tobora keskin yomonlashib borayotgan gumanitar inqirozni ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi"*[18]*. (asliyat tilida).*

---

[16] Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода. – М.: Международные отношения, 1980. – 75 с.

[17] O'sha manba. – B. 36.

[18] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2023-yil 19-sentabrdagi 78-sessiyasidagi nutqi // https://www.youtube.com/watch?v=8M7lCo1HddI

“At the same time, we cannot turn a blind eye to the deeply worsening humanitarian crisis in the Gaza Strip”. (tarjima tilida)

Mazkur misolda asliyat tildagi “*e’tibordan chetda qoldirmoq” so‘z birikmasi* tarjima tilida modulyatsiya strategiyasini qo‘llagan holda “*turn a blind eye*” obrazli, idiomatik metafora, vositasida berilgan hamda o‘zbek tilidagi mazkur neytral va rasmiy uslubga xos iborani ingliz tilida obrazlashtirish “*inqiroz keskinligi*”ni tarjima tilida qyta tiklab, unga befarq bo‘lmaslik zaruratiga oid mazmun saqlangan.

Generalizatsiya (umumlashtirish) – asliyat tilidagi aniq, tor yoki maxsus ma’noli birlikning tarjimada kengroq, umumiyroq semantik doiraga ega birlik bilan ifodalanishidir[19].

Rasmiy-siyosiy diskursda umumlashtirish, shuningdek, diplomatik neytrallikni saqlash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, *“2030 yilga qadar har bir bolaning bog‘chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan **har ikki** o‘quvchi**ning biri** esa oliygohda o‘qishi uchun imkoniyat yaratiladi.” (asliyat tilida). “By 2030, we will create conditions for every child to access preschool education and for **half of** secondary school graduates to obtain higher education.*” *(tarjima tilida)*

Tarjima matnida “**half of** secondary …” son kategoriyali ibora o‘zbek tilidagi “***har ikki** o‘quvchi**ning biri***” aniq ma’noga ega iborasi o‘rnida ishlatilgan bo‘lib, tarjima tilidagi umumlashtirilgan miqdoriy birlik asliyat matn mazmunini ingliz tili me’yorlariga mos ravishda ixcham ifodalanishi xizmat qilgan. .

Konkretlashtirish (aniqlashtirish)– manba tilidagi umumiy, mavhum yoki noaniq birlikning tarjimada aniqroq, tor semantik doiraga ega birlik bilan ifodalanishidir[20]. Masalan, yuqoridagi asliyat matnidan olingan aynan misoldagi *“… … **o‘quvchining**”so‘zi ingliz tilida .“**secondary school graduates**”[21] tarzida berilgan va aynan o‘rta maktab bitiruvchilari haqida gap ketayotgani aniqlashtirilgan.* Mazkur strategiya qo‘llnilishi ingliz zabon tinglovchilar uchun ta’lim tiziming qaysi bosqich bitiruvchilari haqida gap ketayotgani aniqroq qilib yetkazilgan va mazmun ravshanlashtirilgan.

Kalkalash sinxron tarjimada asliyat tilidagi nutq bo‘lagini ichki tarkibini tarjima tilida qayta yaratishdir.

Masalan, *“Barqaror rivojlanish maqsadlari”[22] (asliyat tilida). “Sustainable Development Goals” (tarjima tilida).*

Bunda “sustainable – barqaror”, “development – rivojlanish”, “goals – maqsadlar” tarzida to‘liq kalka shaklida tarjima qilingan. Bunday kalka BMT

[19] Rahimov G‘. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: Darslik-majmua. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.

[20] Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода. – М.: Международные отношения, 1980. – 75 с.

[21] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2023-yil 19-sentabrdagi 78-sessiyasidagi nutqi // https://www.youtube.com/watch?v=twiqHyUmjio

[22] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2025-yil 23-sentabrdagi 80-sessiyasidagi nutqi // https://www.youtube.com/watch?v=cwJKMPmzW4o

terminologiyasida standartlashgan bo‘lib, sinxron tarjimada terminologik izchillik (korpus bo‘ylab bir xil atama) va tezkorlikni ta’minlaydi, ya’ni tarjimon uni “tayyor blok” sifatida qo‘llagan.

Sinxron tarjimada **transkripsiya** – asliyat tilidagi atoqli ot (antroponim yoki toponim) yoki xalqaro qisqartmalar yoki atamalarni tarjima tilining talaffuz va yozuv me’yorlariga moslab qayta ifodalash strategiyasidir. [23] Bu usul transliteratsiyadan farqli ravishda “harfma-harf ko‘chirish”ni emas, balki fonetik jihatdan yaqinlashtirishni ko‘zlaydi. BMT minbaridagi nutqlarda transkripsiya, ayniqsa, referensial aniqlik (kim? qayerda? qaysi tuzilma?) va tezkorlik (vaqt tanqisligida nomni darhol tanish shaklda berish)ni ta’minlash uchun muhim hisoblanadi. Masalan, *“Bosh kotib Antonio Guterrish Janobi Oliylarining ...”*[24] *(asliyat tilida). “Secretary-General António Guterres ...”. (tarjima tilida)*

Mazkur rasmiy diskurs bo‘lagida sinxron tarjimon ekvivalentlikni ta’minlashning asosiy turi – onomastik (referensial) ekvivalentlik tanlangan. “Guterres” familiyasi o‘zbek nutqida “Guterrish” ko‘rinishida berilgani shuni ko‘rsatadiki, tarjimon grafik shaklni saqlashdan ko‘ra o‘zbekcha talaffuzga yaqin, auditoriya uchun tanish variantni tanlagan. Sinxron tarjima qilish rejimda bunday qaror kognitiv yuklamani kamaytiradi. Bunda nom (ism-familiya) tanish shaklda tez anglashiladi va keyingi semantik blokni qabul qilish to‘xtab qolmaydi.

Kompressiya (ma’noni siqish, ixchamlashtirish), tarjima jarayonida asliyat tilida bir nechta leksik birlik yoki ibora orqali ifodalangan mazmunni tarjima tilida semantik jihatdan zich va ixcham bo‘lgan bitta so‘z yoki qisqa birikma yordamida ifodalash usuli hisoblanadi. Masalan, *“A new comprehensive peace agreement in The Republic of the Sudan marks the start of a new era”*[25]*. (asliyat tilida). “Sudanda yangi tinchlik kelishuvi yangi davrni boshlab berdi”. (tarjima tilida)*

Asliyat tilida qo‘llangan “comprehensive peace agreement” iborasi so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “qamrovli tinchlik kelishuvi” shaklida ifodalanishi lozim edi. Biroq, sinxron tarjima jarayonida auditoriyaning diqqat markazida “tinchlik kelishuvi” tushunchasi turganligini inobatga olgan holda, qo‘shimcha tavsiflovchi iboralar olib tashlangan va mazmun ixcham shaklda ifodalangan.

Dekompressiya (ma’noni kengaytirish, yoyish), ya’ni tinglovchi uchun yashirin yoki qisqa berilgan ma’noni ochish, tushunarli qilish uchun izohli va kengroq ifoda bilan tinglovchiga yetkazish.

